



**OILAVIY ZO'RAVONLIKKA UCHRAGAN BOLALAR PSIXOLOGIK
DIAGNOSTIKA QILISH ILOVASINING KONSEPTUAL VA ILMIY ASOSLARI**

Ilmiy rahbar: Kudratullaeva Ruxsora Baxtiyorovna

O'zMU Ijtimoiy fanlar fakulteti

prof.v.b., psixol.f.n Kudratullayeva Ruxsora Baxtiyorovna

Kuvatova Gulbonu Murodullayevna

O'zMU Ijtimoiy fanlar fakulteti

Psixologiya yo'nalishi (magistratura bosqichi) bitiruvchisi

Annotatsiya: *Ushbu tezisdagi butun dunyoda dolzarb muammo sifatida ko'rilayotgan global xafv ya'ni millat kelajagi bo'mish bolalarga nisbatan turli xil ko'rinishdagi zo'ravonlikning oldini olish, bolalarga tezrok va birlamchi ko'mak berish, ularning psixik salomatligi ustida ishlash masalasi ilgari surilgan. Ushbu tezishda zamonaviy yo'l bilan ya'ni mobil ilova orqali bolalarning psixik xolati, depressiya darajasi, travmadan keyingi stress darajalarini o'rganish bo'yicha ma'lumotlar berilgan.*

Kalit so'zlar: *Bolalar, zo'ravonlik, statistika, oilaviy zo'ravonlik, startup, psixologik muammolar, bolalarha nisbatan zo'ravonlik, jismoniy zo'ravonlik.*

Abstract: *This thesis addresses one of the most pressing global challenges of our time — the prevention of various forms of violence against children, who represent the future of every nation. It emphasizes the need for early and rapid intervention, as well as comprehensive support to safeguard children's mental well-being. The research highlights innovative approaches, particularly the development of a mobile application designed to assess children's psychological states, levels of depression, and post-traumatic stress symptoms. By leveraging modern technology, the project aims to provide timely assistance and contribute to the effective prevention of abuse-related consequences.*

Keywords: *Children, violence, statistics, domestic violence, startup, psychological issues, child abuse, physical violence.*

KIRISH

Bugungi kunda oilaviy zo'ravonlik muammosi dolzarbligicha qolmoqda va uning oqibatlarini, ayniqsa, bolalar uchun og'ir bo'lishi mumkin. Zo'ravonlikka duchor bo'lgan bolalarda turli xil psixologik muammolar, jumladan, travma, stress, buzilishlar, depressiya, xavotirlik, o'ziga past baho berish va boshqalar kuzatilishi mumkin. Ushbu bolalarni erta aniqlash va ularga adekvat psixologik yordam ko'rsatish ularning kelajakdagi farovonligi uchun muhim ahamiyatga ega.

Bolalarga nisbatan oilaviy zo'ravonlik – bu voyaga yetmagan shaxsga uning yaqin qarindoshlari, vasiylari yoki uy-ro'zg'or a'zolari tomonidan jismoniy, ruhiy (psixologik), jinsiy yoki ijtimoiy-iqtisodiy bosim ko'rsatish shaklida namoyon bo'ladigan og'ir ijtimoiy



va psixologik muammolardan biridir. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma'lumotlariga ko'ra, har yili millionlab bolalar turli shakldagi oilaviy zo'ravonliklarga duchor bo'ladi va bu holatlar ularning jismoniy salomatligi, ruhiy barqarorligi hamda kelajakdagi shaxsiy taraqqiyotiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi⁶¹.

Oilaviy zo'ravonlik ko'plab shakllarda yuzaga chiqadi: Jismoniy zo'ravonlik – kaltaklash, turli darajadagi tan jarohati yetkazish. Psixologik zo'ravonlik – haqorat qilish, tahdid solish, mensimaslik, doimiy ruhiy bosim o'tkazish. Jinsiy zo'ravonlik – bolani jinsiy harakatlarga majburlash yoki guvoh qilish. Iqtisodiy zo'ravonlik – bolani moddiy yordamdan mahrum etish yoki ekspluatatsiya qilish.

Bolalik davrida olingan zo'ravonlik tajribalari shaxsning keyingi hayotidagi ruhiy holati, o'z-o'ziga bahosi, insonlar bilan munosabat o'rnatish qobiliyati, stressga bardoshlilik va hatto sog'ligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, oilaviy zo'ravonlik qurboni bo'lgan bolalarda depressiya, xavotirlik buzilishlari, agressivlik, autizmga o'xshash ijtimoiy ajralish holatlari, hatto o'z joniga qasd qilish fikrlari shakllanishi mumkin. Afsuski, ko'plab hollarda bu zo'ravonlik holatlari yashirin qoladi. Bunga sabablar: bolalarning o'z hissiyotlarini ifoda etishda qiynalishi, qo'rquv, ijtimoiy stigma va kattalarning befarqligidir. Shu sababli bolalarning psixologik holatini erta aniqlash, ularning ichki holatini baholay oladigan raqamli vositalar, psixologik testlar va mobil texnologiyalarga ehtiyoj kundan-kunga ortmoqda. O'zbekistonda ham ushbu muammo dolzarb bo'lib, 2023–2024 yillarda bolalar bilan bog'liq oilaviy zo'ravonlik holatlari bo'yicha murojaatlar soni oshgani kuzatilmoqda⁶². Bu esa, muammoning chuqur ildizlarini o'rganish va bolalarni himoya qilishning yangi, ilmiy asoslangan yondashuvlarini ishlab chiqishni talab qiladi.

Zamonaviy texnologiyalar, xususan, mobil ilovalar psixologik diagnostika va yordam ko'rsatish sohasida yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Ushbu maqolada zo'ravonlikdan jabr ko'rgan oila farzandlarini psixologik diagnostika qilishga mo'ljallangan mobil ilova yaratishning zarurligi, rejasi, ilmiy asoslari va metodologik jihatlari ko'rib chiqiladi. Jamiyatda oilaviy zo'ravonlik dolzarb muammolardan biri bo'lib, uning ta'siri ayniqsa bolalar ruhiyatiga og'ir ta'sir ko'rsatadi. Ushbu bitiruv malakaviy ishida oilaviy zo'ravonlikdan aziyat chekayotgan bolalarni psixologik diagnostika qilishga mo'ljallangan mobil ilovani ishlab chiqish bo'yicha tadqiqot olib boriladi. Ishda mavzuning dolzarbligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, tadqiqot metodologiyasi va ishning asosiy vazifalari bayon etiladi. Mobil ilovalar zamonaviy diagnostika usullarini takomillashtirishga xizmat qilishi mumkin. Ushbu ishda oilaviy zo'ravonlikning bolalarga ta'siri, diagnostika jarayoni va mobil texnologiyalarning imkoniyatlari o'rganiladi. Shu bilan birga, ilovaning startap sifatida bozorga chiqish imkoniyatlari va iqtisodiy samaradorligi tahlil qilinadi.

⁶¹ O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi. (2022). *Bolalar psixologiyasida oilaviy zo'ravonlik oqibatlari*. Toshkent.

⁶² O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi Bolalar huquqlari bo'yicha vakil (Ombudsman). (2023). *Bolalar huquqlarini himoya qilish bo'yicha yillik hisobot*. Toshkent.



So'nggi yillarda raqamli psixologik diagnostika vositalariga bo'lgan talab sezilarli darajada oshdi. Bu, asosan, ruhiy salomatlikka e'tiborning kuchayishi va texnologik rivojlanish bilan bog'liq. Global miqyosda psixologik salomatlik bozorining qiymati 2021-yilda taxminan 20 milliard AQSh dollarini tashkil etgan va yillik o'sish sur'ati 2022-2027 yillar oralig'ida 15-20% atrofida bo'lishi kutilmoqda⁶³. Ushbu o'sishning asosiy omillari quyidagilardir:

Texnologik innovatsiyalar: Sun'iy intellekt, mashinani o'rganish va katta ma'lumotlar tahlili kabi texnologiyalar psixologik diagnostika jarayonlarini avtomatlashtirish va takomillashtirish imkonini bermoqda.

Ruhiy salomatlikka e'tiborning ortishi: Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, depressiya va tashvish kabi ruhiy kasalliklar dunyo bo'ylab keng tarqalgan bo'lib, bu sohaga bo'lgan ehtiyojni oshirmoqda⁶⁴.

O'zbekistonda bo'lsa raqamli psixologik diagnostika startaplari bozori hali rivojlanish bosqichida. Mamlakatda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi va internetdan foydalanuvchilar sonining ortishi ushbu sohada yangi imkoniyatlar yaratmoqda.

Internet foydalanuvchilari: Statistik ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonda internetdan foydalanuvchilar soni yil sayin oshib bormoqda, bu esa onlayn xizmatlarga bo'lgan talabni oshiradi⁶⁵.

Ruhiy salomatlikka e'tibor: So'nggi yillarda O'zbekistonda ruhiy salomatlik masalalariga e'tibor kuchaymoqda, bu esa psixologik xizmatlarga bo'lgan ehtiyojni oshiradi.

XULOSA

Startup ekotizimi: O'zbekistonda startup ekotizimi rivojlanmoqda, ammo raqamli psixologik diagnostika sohasida hali ko'p startaplar mavjud emas. Bu esa yangi loyihalar uchun bo'shliq va imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatadi. Raqamli psixologik diagnostika vositalari psixologlarga bemorlarning ruhiy holatini aniqlashda qo'shimcha imkoniyatlar yaratadi. An'anaviy usullardan farqli o'laroq, zamonaviy texnologiyalar yordamida diagnostika jarayonlari tezlashadi va natijalar aniqroq bo'ladi. Bu esa psixologlarning ish samaradorligini oshiradi va bemorlarga ko'rsatilayotgan xizmatlarning sifatini yaxshilaydi. Global miqyosda raqamli psixologik diagnostika bozorining o'sishi kuzatilmoqda. O'zbekistonda esa bu soha rivojlanish bosqichida bo'lib, texnologik innovatsiyalar va kadrlar tayyorlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar kelajakda bu sohaning yanada rivojlanishiga zamin yaratadi. Oilaviy zo'ravonlik bolalarning jismoniy va ruhiy

⁶³ UNICEF. (2023). *Global status report on preventing violence against children*. [Online]. <https://unicef.org>

⁶⁴ UNICEF. (2023). *The Impact of Domestic Violence on Children: A Global Perspective*. <https://unicef.org/research>

⁶⁵ O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi. (2023). *O'zbekistonda raqamli tibbiyot va psixologiya diagnostikasi bo'yicha rivojlanish tendensiyalari*. <https://mitc.uz/>





rivojlanishiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatadigan global muammolardan biridir⁶⁶. O'zbekiston va dunyo miqyosidagi statistik ma'lumotlar keltirish lozim deb bilamiz.

Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektning rivojlanishi so'nggi o'n yillikda psixologiya sohasiga ham katta ta'sir ko'rsatdi. Raqamli psixologik diagnostika, xususan, startaplar orqali jadal rivojlanayotgan sohaga aylangan. Raqamli psixodiagnostika vositalari yordamida psixologik testlarni avtomatlashtirish, bolalarning ruhiy holatini tez va aniq tahlil qilish, psixologik yordamni masofaviy tarzda ko'rsatish imkoniyatlari kengaymoqda. Bu jarayonlar nafaqat psixologlar va terapevtlar, balki o'rta va kichik biznes uchun ham katta imkoniyatlar yaratmoqda.

Global tendensiyalar:

So'nggi yillarda, ayniqsa COVID-19 pandemiyasi davrida, raqamli psixologik diagnostika va telemeditsina xizmatlari keskin o'sdi. Ko'plab startaplar, jumladan, Woebot, BetterHelp, Talkspace kabi platformalar, psixologik maslahatlar va testlarni masofaviy tarzda taklif etmoqda. Ushbu xizmatlar foydalanuvchilarga mobil ilovalar, veb-platformalar orqali tezkor psixologik yordam olish imkoniyatini yaratadi. Bularning barchasi sun'iy intellekt va mashina o'rganish texnologiyalaridan foydalangan holda amalga oshirilmoqda. Misol uchun, Woebot dasturi sun'iy intellekt asosida ishlaydi va foydalanuvchilarning hissiy holatini tahlil qilib, mos ravishda tavsiyalar beradi.

Bozor o'sishi: Global bozorga ta'sir qilayotgan asosiy omillar sifatida raqamli psixologiya va telemeditsina xizmatlariga bo'lgan talabning ortishi, foydalanuvchilarning onlayn psixologik yordamga bo'lgan ehtiyoji, shuningdek, psixologik salomatlikka bo'lgan ijtimoiy e'tiboring oshishi keltirilmoqda. 2023 yilga kelib, psixologik yordam sohasidagi raqamli platformalar 10 milliard dollardan ortiq bozorga ega bo'lib, prognozlar shuni ko'rsatadiki, 2028 yilga kelib bu bozor 25 milliard dollarga yetishi mumkin⁶⁷.

O'zbekiston sharoitida rivojlanish istiqbollari:

O'zbekiston sharoitida raqamli psixologik diagnostika startaplarining rivojlanish imkoniyatlari yuqori. O'zbekistonda psixologik xizmatlarga ehtiyoj ortib borayotganligi va yosh avlodning onlayn xizmatlarga qiziqishi bu bozorni rivojlantirish uchun imkon yaratadi. Raqamli psixologik diagnostikani o'z ichiga olgan startaplar hozirgi kunda xalqaro miqyosda o'z o'rnini topmoqda, ammo mahalliy bozor hali bu texnologiyalarni keng qamrovda qabul qilmagan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ahmedova, M. A. (2018). *Oila psixologiyasi*. Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti.

⁶⁶ O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi Bolalar huquqlari bo'yicha vakil (Ombudsman). (2023). *Bolalar huquqlarini himoya qilish bo'yicha yillik hisobot*. Toshkent.

⁶⁷ Google Developers. (2022). *Building Accessible Mobile Apps for Mental Health*. <https://developer.android.com/>



2. Andreeva, G. M. (2020). Социальной психологии. Moskva: Aspekt Press.
3. Beck, A. T., Steer, R. A., & Brown, G. K. (1996). *Manual for the Beck Depression Inventory-II*. San Antonio, TX: Psychological Corporation.
4. Bessel van der Kolk. (2014). *The Body Keeps the Score: Brain, Mind, and Body in the Healing of Trauma*. Viking.
5. Bronfenbrenner, U. (1979). *The Ecology of Human Development: Experiments by Nature and Design*. Harvard University Press.
6. Ergashev, I. (2018). *Oilaviy muammolar va bolalar ruhiyati*. Toshkent: TDPU nashriyoti.
7. Goodwin, C. J. (2020). *Research in Psychology: Methods and Design*. Wiley.
8. Chan, S., & Holosko, M. J. (2021). The utilization of digital technology in social work interventions. *Journal of Technology in Human Services*, 39(1), 1–23.
9. Davidson, J. R. T., & Connor, K. M. (2003). Connor-Davidson Resilience Scale (CD-RISC). *Depression and Anxiety*, 18(2), 76–82.
10. Glover, J., & Taylor, S. (2022). Market Analysis of Mobile Application Startups in Emerging Economies. *Journal of Business and Technology*, 29(3), 101–117.
11. Rasulova, G. (2023). Oilaviy zo'ravonlik va uning bolalar ruhiyatiga ta'siri. *O'zMU Ilmiy axborotnomasi*, №2, 45–52.